

Boshlang'ich sinflar uchun "Yo'l harakati qoidalarini" qo'llanmasi.





Svetafor bilan tanishganmisiz?

Svetafordagi ranglar nimani bildiradi?

QIZIL rang- to'xtab turishni bildiradi. Svetaforda shu rang yongan bo'lsa piyodalar yo'lni kesib o'tishlari kerak. Bu paytda avtomobillar harakatlanishmaydi.

SARIQ rang-ogohlantirishni bildiradi. Bu rang yonganda avtomobillar harakatlanishlari uchun hushyor, ogoh turishlari bildiriladi. Lekin harakatlanishmaydi.

YASHIL rang-yurish kerakligini bildiradi. Bu rang yonganda avtomobillar harakatlanishadi, yo'lovchilar harakatlanishdan to'xtashadi.

Mustahkamlash uchun test sinovi:

1. Svetafordagi qaysi rang to'xtab turishni bildiradi?

- A) Qizil rang
- B) Sariq rang
- C) Yashil rang
- D) To'xtash belgisi

2. Svetaforda nechta rang bor ekan?

- A) 2 ta
- B) 3 ta
- C) 4 ta
- D) 5 ta

3. Qaysi rang harakatlanishni bildiradi?

- A) Qizil rang
- B) Sariq rang
- C) Yashil rang
- D) Svetaforda bunday belgi yo'q



Bu belgining nomi nima?

Bu belgining nomi “Piyodalar o’tish joyi”.

Yo’lning harakatlanish bo’lagida piyodalarning o’tishlari uchun ajratilgan joyning mavjudligini anglatadi. Bunday joylarda qo’shimcha tarzda “zebra” yotiq chizig’i bo’lishi ham mumkin. Bu piyodalarning o’tishi uchun belgilangan joy deb yuritiladi va unda piyodalar transport vositalaridan oldin o’tish imtiyoziga ega hisoblanadilar. Mazkur belgi aholi yashaydigan joylardan tashqarida va Shahar tashqarisidagi barcha o’tish joylariga 150-300 m yetmasdan, shaharda esa bevosita o’tish joyi oldiga 100 m qolganda o’rnatiladi. Ushbu belgi zarur bo’lganda to’xtatish uchun tezlikni kamaytirishni talab etadi va piyodalar uchun belgilangan

o'tish joyining yaqinlashganligi hamda piyodalarning transport vositalaridan oldin harakatlanish (yurib o'tish) imtiyoziga egaligini bildiradi.



Mustahkamlash uchun savollar:

1. Yo'lning harakatlanish bolagida piyodalarning o'tishlari uchun ajratilgan joyning mavjudligini anglatadigan belgi qaysi?
2. Piyodalarning o'tishi uchun belgilangan joy deb yuritiladigan yotiq chiziqning nomi nima?
3. "Zebra" yotiq chizig'i qayerlarga o'rnatiladi?
4. "Zebra" yotiq chizig'i o'tish joylariga necha metr qolganda o'rnatiladi?
5. Piyodalar uchun o'tish joyining yaqinligini bildirib turuvchi belgi qaysi?



“Diqqat bolalar!” belgisi.

Bu belgi bog'cha va maktablar atrofiga qo'yiladi. Undan tashqari bolalar doimiy to'planadigan maydonlarga ham ogohlantirish sifatida o'rnatiladi. Bu belgi haydovchini bolalar majmuasiga yaqinlashayotganligini va yo'lning bu qismidan har daqiqada bolalar chiqib qolishi mumkinligi haqida ogohlantiradi.

Mustahkamlash uchun savol:

1. Bu belgilar bog'cha yoki maktab atrofiga o'rnatilmasa qanday hodisalar ro'y berish mumkin?



“To’xtamasdan harakatlanish taqiqlangan” belgisi.

Asosiy yo’lning yo’nalishidan qat’i nazar, belgi haydovchiga tartibga solinmagan chorraxaga to’xtamasdan kirib kelishini taqiqlaydi. Haydovchi to’xtash chizig’i oldida, agar u bo’lmasa, kesib o’tiladigan qatnov qismining chetida to’xtab o’tadi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Sz yashayotgan manzilda ham ushbu belgi o’rnatilganmi?
2. Ushbu belgiga asosan haydovchilar qanday hollarda to’xtab o’tishlari kerak?
3. O’qituvchi nazorati ostida belgi o’rnatilgan joylarda haydovchilar qanday harakatlanishini kuzating.



“Ta’mirlash ishlari” belgisi.

Bu belgi yo’lning ta’mirlash ishlari olib borilayotgan qismlari yaqinida o’rnatilib, haydovchini ehtiyot bo’lib o’tishi kerakligi to’g’risida ogohlantiradi. Yo’lning bunday qismlari qorong’i paytlarda xavfli hisoblanadi.

Savollar:

1. “Ta’mirlash ishlari” belgisi qanday joylarga o’rnatiladi?
2. Qorong’ida qanday yo’llardan yurish xavfli hisoblanadi?
3. Agar yo’l ta’mirlanayotgan joyda bu belgi bo’lmasa nima qilish lozim?



Ushbu yo'l belgisi vaqtinchalik yoki tasviri o'zgaradigan holatda tirbandlik hosil bo'lgan yo'l yoki chorraxani aylanib o'tish imkoniyati bo'lgan joyga o'rnatiladi. "Tirbandlik" ogohlantiruvchi belgilari aholi punktlarida xavfli joydan 50-100 metr, aholi punktlaridan tashqari esa 150-300 metr oldin o'rnatiladi. Zaruriyat bo'lganda belgilar boshqa masofada ham o'rnatilishi mumkin.

Test sinovi:

1. Belgi aholi punktlarida necha metr masofa oldin o'rnatiladi?
A) 150-300 m
B) 50-100 m
C) 50-60 m
D) 100-200 m
2. Belgi aholi punktlaridan tashqari qancha masofa oldin o'rnatiladi?
A) 150-300 m
C) 50-60 m

B) 50-100 m

D) 100-200 m



“Velosipedchilar uchun yo’lak” belgisi.

Yo’l belgisi qaysi harakat bo’lagi ustiga o’rnatilgan bo’lsa, o’sha harakat bo’lagiga ta’sir qiladi. Yo’lning o’ng tomoniga o’rnatilgan yo’l belgisi o’ng bo’lakka ta’sir qiladi.

Mantiqiy savol:

1. belgi yo’q joylarda velosipedchilar erkin harakatlana oladimi?



“Tavsiya etilgan tezlik” belgisi.

Ushbu belgi yoʻlning shart-sharoitlari yoki ob-havo sharoitlariga qarab shu qism uchun maʼlum tezlikni tavsiya qiladi. Belgi birinchi chorraxagacha taʼsir qiladi. Agar bu belgi ogohlantiruvchi belgi bilan birga qoʻllansa uning taʼsir oraligʻi xavfli qismning uzunligi bilan aniqlanadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Ushbu belgi qanday vaziyatlarga qarab tavsiya qilinadi.
2. Belgi qancha masofagacha taʼsir qiladi.
3. Agar siz avtomobilda safarga chiqqaningizda, haydovchi belgiga rioya qilmaganini koʻrsangiz nma qilgan boʻlar edingiz?



“To’xtab turish ta’qiqlangan” belgisi.

Yo’lning yetarli darajada keng bo’lmagan qismlariga ushbu belgi o’rnatilib, barcha transport vositalarining 10 daqiqadan ortiq turishini taqiqlaydi. Taksometri ishlab turgan taksi avtomobili, nogiron haydovchilarga tegishli avtomobil va motokajava, yuk ortilayotgan yoki tushirilayotgan avtomobillar bundan mustasno.

Mustahkamlash uchun topshiriqlar:

1. Belgini mustaqil ravishda rasmini chizing.
2. Belgi haqida olgan ma’lumotlaringizni oila davrasida muhokama qiling.



“Piyodalarning harakatlanishi taqiqlangan” belgisi.

Yo'l xizmatchilari va ta'mirlovchi ishchilarga belgining daxli yo'q. Bu belgi metro stansiyalarida (ekskalatordan tushib-chiqish, bir stansiyadan ikkinchisiga o'tish jolarida) bir tomonlama harakatni joriy etish uchun ham ishlatiladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Ushbu belgi nima uchun kerakligini bilib ldingizmi?
2. Agar belgiga rioya qilinmasa qanday muammolar yuzaga kelishi mumkin?
3. Belgi haqida yana qanday fikr-mulohazalaringiz bor?



Bu belgi transport vositalarining bir tomonlama harakatlanishini joriy etishda yo'lining bir tarafiga ushbu belgi o'rnatiladi. Barcha transport vositalarinig (yo'nalishli transport vositalari bundan mustasno) kirishi taqiqlanadi.

Test sinovi:

1. "Kirish taqiqlangan" belgisi bo'yicha harakatlanmaydigan transport vositasi qaysi?

- A) Yo'nalishli transport vositalari
- B) Avtobuslar
- C) Yuk mashinalari
- D) Yengil transport vositalari

2. Belgini qo'llashdan maqsad nima?

- A) Avtohalokat sodir etilishini oldini olish
- B) Mashinalarni taqiqlangan joyga kirishiga yo'l qo'ymaslik
- C) Yoqilg'i resurslarini tejash
- D) Bir tomonlama harakatlanishni joriy etish

Topshiriq:

"Kirish taqiqlangan" belgisini yasang va do'stlaringiz ichida eng chiroyli chiqqan belgi sohibini aniqlang.



“Tik balandlik” belgisi.

Bu belgi tik balandliklar oldida oʻrnatiladi va haydovchini transport vositasining dinamik xususiyatlari, yukli yoki yuksizligiga qarab, kerakli uzatmaga ulash, balandlikka toʻxtamasdan chiqish kerakligidan ogohlantiradi. Aks holda avtomobil toʻxtab qolib, oʻz ogʻirligi bilan orqaga ketishi mumkin. Nishablik va balandlik ketma-ket keladigan boʻlsa, yuqoridagi belgilar 50-100 m masofada emas, balki bevosita nishablik va balandlik oldida oʻrnatiladi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. “Tik balandlik” belgisi maʼlum masofagacha qoʻyiladimi?
2. Balandlikda harakatlanayotgan avtomobil toʻxtashi mumkinmi?
3. Belgi qanday joylarga oʻrnatiladi?
4. Rangli plastilinlar yordamida “Tik balandlik” belgisini yasab koʻring.



“Tosh otilish xavfi” belgisi.

Mukammal qoplamali yo'l qismida transport vositasi g'ildiragi ostidan shag'al, tosh va shunga o'xshashlarning otilib chiqish ehtimoli. Bu belgi yo'lining ta'mirlash ishlari olib borilayotgan joylarida g'ildirak bilan bosilgan tosh, shag'al va shunga o'xshash narsalarning otilib chiqish ehtimoli borligidan ogohlantiradi. Yo'lining bunday qismlarida haydovchi tezlikni kamaytirib, oraliq masofani tosh otilish xavfsizligi mavjud masofagacha uzaytirishi lozim.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Haydovchilar belgiga amal qilmay harakatlanishi davomida qanday salbiy hodisalar yuzaga keladi?
2. Belgi qanday joylarga o'rnatiladi?
3. Belgini qo'llashdan asosiy maqsad nima?
4. Ushbu belgiga asosan haydovchi qanday tezlikda harakatlanishi kerak?